

O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni
- II. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama’lumotlar


I. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-iyun holatiga ko‘ra, respublikada 62,0 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida korxonalarining katta qismi quyidagilarga:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – 12,4 mingta (20,0 %);
- boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 8,7 mingta (14,0 %);
- kiyim ishlab chiqarish – 6,2 mingta (10,1 %);
- tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – 5,1 mingta (8,2 %);
- mebel ishlab chiqarish – 4,3 mingta (6,9 %);
- to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,8 mingta (6,1 %);
- rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – 2,9 mingta (4,7 %)ga to‘g‘ri keldi.

1-rasm. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida sanoat korxonalari ulushi

2026-yil 1-iyun holatiga ko‘ra



II. O‘zbekiston Respublikasi sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

2026-yilning yanvar–may oylarida sanoat ishlab chiqarish hajmi joriy narxlarda 505,9 trln so‘mni tashkil etdi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 7,9 foizga oshgan.

1-jadval. Hududlar bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi hajmi va fizik hajm indeksi

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
O‘zbekiston Respublikasi	505 933,2	107,9
<i>hududlar:</i>		
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	12 061,2	107,7
Andijon viloyati	44 049,7	109,3
Buxoro viloyati	20 737,6	108,1
Jizzax viloyati	15 630,9	112,1
Qashqadaryo viloyati	19 329,9	108,0
Navoiy viloyati	128 500,2	105,2
Namangan viloyati	16 050,7	108,5
Samarqand viloyati	25 480,0	109,5
Surxondaryo viloyati	7 560,9	108,4
Sirdaryo viloyati ¹⁾	10 952,4	108,2
Toshkent viloyati	80 029,6	107,9
Farg‘ona viloyati	23 054,8	108,2
Xorazm viloyati	14 557,4	108,0
Toshkent shahri	81 663,0	107,3

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari \(yillik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinganda Navoiy viloyatida (115,4 mln so‘m), Toshkent shahrida (25,6 mln so‘m) va Toshkent viloyatida (25,3 mln so‘m) respublika o‘rtacha ko‘rsatkichi (13,2 mln so‘m)dan yuqori natijalar qayd etilgan.

Shuningdek, respublikada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati **105,9 %** ni tashkil etdi. Bunda Jizzax viloyatida **110,0 %**, Samarqand viloyatida **107,5 %**, Andijon viloyatida **107,4 %**, o‘shish surati bilan respublika ko‘rsatkichidan yuqori natijaga erishdi.

¹⁾ viloyatda yangi ishga tushirilgan davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi korxonalar hajmi qamrovini hisobga olgan holda.

2-rasm. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

[Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(oylik\)](#)

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri keldi. Uning umumiy hajmi **436,2** trln so'mni tashkil etib, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **86,2** foizga yetdi. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash **34,7** trln so'm (**6,9** %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **32,4** trln so'm (**6,4** %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish **2,7** trln so'm (**0,5** %) hajmi tashkil etdi.

3-rasm. Seksiyalar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi
2026-yilning yanvar-may oylarida



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 4 ta B, C, D, E seksiyadan iborat:

B - tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash;

C - ishlab chiqarish sanoati;

D - elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash;

E - suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishdan tashkil topgan.

III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yil yanvar-may oylarida respublikada quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarildi: tabiiy gaz – **15,8** mlrd m³, neft – **261,9** ming t, ko‘mir – **1,6** mln t, avtomobil benzini – **502,2** ming t, dizel yoqilg‘isi – **476,4** ming t, portlandsement – **8,2** mln t, ip kalava – **317,1** ming t, yumshoq bug‘doy va spelta uni – **630,4** ming t.

2-jadval. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may ¹⁾	2025-yil yanvar-may ¹⁾	2026-yil yanvar-may
Avtomobil dvigatellari, dona	107 468	94 257,0 ²⁾	103 293
Avtomobil benzini, ming t	569,7	492,4	502,2
Dizel yoqilg‘isi, ming t	389,7	442,0	476,4
Ko‘mir, mln t	1,9	2,5	1,6
Neft, ming t	305,0	270,8	261,9
Tabiiy gaz, mlrd m ³	18,9	18,4	15,8
Gaz kondensati, ming t	528,4	482,1	391,7
Portlandsement, mln t	6,2	7,8	8,2

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ "UZAUTO MOTORS POWERTRAIN" AJ tomonidan 2026-yil yanvar-may oylarida o‘tgan yilning mos davri bo‘yicha avtomobil dvigatellari hamda silindr bloklari ishlab chiqarish hajmlariga oid ma‘lumotlar alohida aniqlashtirilgan holda taqdim etildi.

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – **16,2** %, to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – **14,2** %, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar, kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar, elektr uskunalar, boshqa toifalarga kiritilmagan

mashina va uskunalar, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar, boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish va mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatishning ulushi – **16,2** % hamda kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – **6,4** foizni tashkil etdi.

3-jadval. O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar soni
yanvar-may oylarida, donada

Sanoat mahsulotlari	2025-yil ¹⁾	2026-yil
Yuk avtomobillari	1 873	2 413
Yengil avtomobillar	171 211	190 480
<i>shundan:</i>		
Maxsus yengil avtomobillar	17 397	23 791
“Cobalt”	58 904	69 302
“Damas”	38 753	35 269
“Tracker”	18 079	18 519
“Onix”	16 215	15 157
“KIA”	10 076	11 128
“Chery”	3 362	3 156
“Haval”	2 930	4 038
“BYD”	5 495	10 120

¹⁾ 2025-yilning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma‘lumotlar asosida shakllantirilgan.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasi

2026-yilning yanvar-may oylarida **36 167,3** mln kVt soat elektr energiya ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda **3,1** foizga oshgan (*asosiy faoliyati elektr energiya ishlab chiqarish bo‘lmagan kichik tadbirkorlik subyektlari va uy xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasidan tashqari*).

Yirik korxonalar tomonidan issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa **17,4** foizga kamaygan.

2026-yilda ko‘mirni yer ostida gazga aylantirish natijasida olinadigan gaz ishlab chiqarilmagan.

4-jadval. Elektr energiyasi va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may ¹⁾	2025-yil yanvar-may ¹⁾	2026-yil yanvar-may
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, mln kVt soat	34 117,0	35 064,2	36 167,3
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	<i>31 201,3</i>	<i>26 316,5</i>	<i>24 812,5</i>
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlari asosida) ²⁾</i>	<i>2 915,4</i>	<i>8 747,7</i>	<i>11 354,8</i>
Issiqlik energiyasi, ming Gkal (yirik korxonalar)	11 489,1	10 211,4	8 429,8

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

²⁾ Asosiy faoliyati elektr energiya ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasi (yirik korxonalar tomonidan)

To'qimachilik chiqindilari o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,6** foizga kamaygan, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar hajmi **12,8** foizga oshgan.

5-jadval. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi va chiqindilar bo'yicha ayrim ko'rsatkichlar

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may ¹⁾	2025-yil yanvar-may ¹⁾	2026-yil yanvar-may
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	253,2	273,5	308,4
Chiqindi o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	166,1	171,3	172,6
To'qimachilik chiqindilari, ming t	7,6	10,4	10,3

¹⁾ 2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

IV. Uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon



sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlash bo‘yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi.

Ayrim hollarda uchraydigan jamlanma ko‘rsatkich bilan qo‘shiluvchi raqamlar o‘rtasidagi katta bo‘lmagan tafovutlar raqamlarning yaxlitlanishi bilan izohlanadi.

Foydali havolalar

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/855-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/865-sanoat-ishlab-chiqarishining-fizik-hajm-indeksini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom>

Tayyorlash uchun mas‘ul:

Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:

O. Izmailov
+998 71 203-80-00 (1205)

Manzil:

